

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Umirov Ulug'bek Tayirbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, o'qituvchi

Mustafoyev Farrux Abdiqodir o'g'li

TDIU Samarqand filiali, mustaqil izlanuvchi

e-mail: mustafoyevfarrux@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Maqolada “raqamli iqtisodiyot” kategoriyasiga berilgan ta’riflar va turlicha yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi elektron tijoratning mohiyati, klassifikatsiyasi, rivojlanish tendensiyalari, afzalliklari va kamchiliklari xorijiy mamlakatlar misolida ko’rsatib berilgan. O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan (PDF) Raqamli iqtisodiyot va unda elektron tijoratning o'rni.*

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, internet iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot va jahon iqtisodiyoti istiqbollari, kommunikatsiya.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyot –bu innovatsion g’oya. Ushbu fikr Jahon banki tomonidan 2016-yil “Jahontaraqqiyoti haqida ma’ruza –2016: raqamli dividendlar” ma’ruzasida ma’lum qilingan. Ushbu tadqiqot xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarbva muhim masala ekanligini ko’rsatadi. Xususan Internet tezligining 10 foizga o’sishi mamlakat YaIMning o’sishiga ham ta’sir qiladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko’rsatkich 1,21 foizni tashkiletsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizgateng. Demak, Internet tezligi 2 baravar oshadiganbo’lsa, YaIM hajmi 13–14 foiz ortishiga erishishmumkin.

Raqamli iqtisodiyot tarkibiga elektron hukumat, elektron biznes, elektron kommertsiya, raqamli iqtisodiy munosabatlar, raqamli banklar, raqamli arxivlar, virtual korxonalar, kripto-valyutalar –elektronpullar, ijtimoiy tarmoqda marketing xizmatlaridan foydalanish, blokcheyn texnologiyasini joriy etish, korxonalarining raqamli “cho‘ntak”lari, raqamli dividendlar va boshqalar kiradi. Raqamli Iqtisodiyotni rivojlanishi ko‘plab qulayliklari va afzalliklari va yutuqlari va o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bor. Raqamlilashtirish natijasida ko‘plab qulayliklarga ega bo‘lamiz masalan, vaqtimiz tejalishi moliyaviy erkinliklar ko‘plab qulaylik bor oldinlari ochirad kutib kommunal tulovlarini amalga oshirar edik hozir esa turgan joyimizdan turli xil joylardan bu sihlarni amalga oshirishimiz mumkun. Yangi texnologiyalar kashf etilishi yangi loyihalar insonlar uchun juda qulaylashib ma‘anfatli bo‘lib bormoqda aqilli uylar aqlli soatlar, aqlli smart fonlar. Biz bu yerda qulayliklarini ba;zilarini sanab o‘tdik lekin buni kamchiliklarini ham inobatga olishimiz kerak hozirgi sanab o;rilgan turli xildagi smartfonlar texnologiyalarni ham boshqarishni bilish kerak buni esa yoshi kattalar bajarisha olishmaydi. Raqamli iqtisodiyotni kirib kelishi Iqtisodiyotni ham rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi 10 kishi qiladigan ishlarni 1 ta yangi texnologiya bajarishmoqda buni saaytlarda xam ko‘rishiz va uchratishiz ham mumkun. Robotlar paydo bo‘lishi suniiy intellekt paydo bo‘lishi qisqa qilib aytganda insonlar uchun juda foydali bo‘lib bormoqda Raqamli iqtisodiyotning yuksalishi 21-asrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Reallik bilan bog‘laganda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YAİM hajmi ham, YAİMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda mazkur masalaga e‘tibor qaratish yagona maqsadni ko‘zlaydi, u ham bo‘lsa, aholining yashash sharoitini yaxshilash, aholini real daromadini oshirish, qolaversa tadbirkorlikni va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdir. “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham samarali vositadir” -

Prezidentimizning mazkur soʻzlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni taʼminlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganga, har bir mamlakat rivojlanishi uchun yangi-yangi oʻzgarishlar, gʻoyalar, vaqti-vaqti bilan oʻzgarib turadigan yangicha tartiblar boʻlishi lozim. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Raqamli iqtisodiyot jamoat manfaatlarida ishlashi uchun u inklyuziv boʻlishi kerak. Yangi texnologiyalar muqarrar ravishda mehnat bozorida sezilarli oʻzgarishlar, jumladan, ayrim tarmoqlarda ish oʻrinlarini qisqartirish va boshqalarida keng miqyosda yangi imkoniyatlar yaratish bilan bogʻliq. Raqamli iqtisodiyot turlixil yangi bilim va koʻnikmalarni, sezilarli darajada yangi ijtimoiy himoya choralari talab qiladi. Shu bilan birga, taʼlimni rivojlantirish, shuningdek, umrbod taʼlim xizmatlaridan umumiy foydalanish imkoniyatini taʼminlash uchun katta mablagʻ talab etiladi.

REFERENCES.

1. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich Iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishdagi kambagʻallikni qisqartirish. IQTISODIYOT VA TAʼLIM 2021 4-son. 288-292 b
2. Raqamli iqtisodiyot korrupsiyaga baham beradi 22-fevral 2019 Qobil Tursunov, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati aʼzosi
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. T.1. –T.: “Oʻzbekiston”, 2017. –B.534
4. Downs, T. ; Greenstein, S. (2002). "AQShdagi universal kirish va mahalliy Internet bozorlari". Tadqiqot siyosati. 31 (7): 1035-52. CiteSeerX 10.1.1.509.7345. doi:10.1016 / s0048-7333 (01) 00177-9